

CHET TILIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH: DIFFERENSATSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA SHAXSLASHTIRILGAN O'QITISH MODELI VA PSIXOMETRIK TAHLIL ORQALI UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Tursinova Klara Nuriddinovna

Katta o'qituvchi, Samarqand davlat pedagogika instituti

Doniyorova Yorqinoy Gulomovna

Doktorant, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Shavqiyeva Maftuna Salimboy qizi

Doktorant, Samarqand davlat chet tillar institute

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim tizimi muassasalarida ingliz tilini o'rgatishda talabalar ehtiyojlari hamda psixologik xususiyatlariga mos yondashuv hamda sun'iy intellekt imkoniyatlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor o'rganuvchining til ko'nikmalarini tadrijiy rivojlantirish, individual o'rganish va rivojlantirish usullarini aniqlash va sun'iy intellekt texnologiyasi yordamida ixtisoslashtirilgan manbalar yaratishga qaratilgan.*

***Tayanch so'zlar:** ingliz tilini o'qitish, differensiatseyaviy yondashuv, psixometrik tahlil, individual yondashuv, sun'iy intellekt*

KIRISH.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida chet tilini o'qitish jarayoni tezkor hamda innovatsion yechimlarni talab etmoqda. Ayniqsa, yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida o'quvchilarning til darajasi, fikrlash sur'ati va individual ehtiyojlariga moslashgan o'qitish modeli muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga kirib kelishi bu jarayonni tubdan yangilash uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Xorijiy tillarni o'qitishda differensiyaviy yondashuv va psixometrik baholash usullarining sun'iy intellekt bilan uyg'unlashuvi o'qitish sifatini oshirish, og'zaki va yozma nutqdagi o'sishni aniq o'lchash, shuningdek, individual o'quv yo'llarini shakllantirishga to'liq xizmat qiladi.

Differensiatseyaviy yondashuv – bu ta'lim jarayonida o'rganuvchilarning bilim darajasi, shaxsiy qobiliyatlari, qiziqishlari, o'rganish uslubi, tushunish yo'li hamda psixologik xususiyatlariga qarab o'qitish metodikasini moslashtirish vositasidir. Aynan ingliz tilini o'rganishda bu yondashuv quyidagi xususiyatga ega bo'ladi. Xususan, o'tilgan mavzularni tez hamda sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarga alohida moslashtirilgan topshiriq va mashg'ulotlar berish orqali darsni o'tkaziladi. Bu jarayonda har bir o'rganuvchiga muayyan usul va texnologiyalardan foydalangan shaklda alohida yondashiladi.

Shuningdek, turli xil uslub hamda formatdagi dars materiallarini tanlash bu yondashuvning muhim talabi hisoblanadi. Bir qancha manbalaridan, turli materiallardan foydalanilgan o'quvchiga dars o'tiladi. Differensiatseyal yondashuvning yana bir jihati bu mustaqil tarzda o'rganishga o'quvchini ruhlantiruvchi hamda rag'batlantiruvchi usullarni amalga joriy etishni ham nazarda tutadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil tarzda bilim olishiga qiziqtirish uchun harakat qiladi va ularni jalb qiladi.

Differensiyaviy yondashuvning sun'iy intellekt texnologiyalari asosidagi integratsiyasi juda ko'p qulaylik hamda imkoniyatlarga ega:

Chet tilini o'qitishda differensiyaviy yondashuv o'quvchilarni ma'lum guruhlariga (til darajasi, o'quv uslubi, motivatsiya yoki ehtiyojlarga ko'ra) ajratish bilan cheklanmaydi. Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bu jarayon yanada aniqroq va dinamik shakl kasb etadi.

Sun'iy intellekt yordamida differensiyalashning asosiy mexanizmlari:

- O'rganuvchilar bilim darajaga mos topshiriqlar yaratish: boshlang'ich, o'rta va yuqori darajadagi o'quvchilar uchun turlicha yozma mashqlar.

- Shaxslashtirilgan feedback: har bir o'quvchining xatolari va kuchli tomonlariga mos tavsiyalar va maslahatlar beriladi.

- Moslashuvchan murakkablik darajasi: o'quvchi o'sishi bilan vazifalar avtomatik ravishda murakkablashadi.

Psixometrik tahlil va Sun'iy intellekt modelning samaradorligi

Mazkur modelning sifatini ilmiy asosda baholash uchun psixometriyaning quyidagi elementlari qo'llanadi:

1. Ishonchlilik (Reliability)

Sun'iy intellekt texnologiyasi asosida nazorat qilish va baholash jarayoni subyektivlikni kamaytiradi, natijada baholashning takrorlanish aniqligi oshadi. Bu esa ichki ishonchlilik ko'rsatkichlarini mustahkamlaydi.

2. O'zlashtirish jarayonini monitoring qilish

Sun'iy intellekt o'quvchilarning bir necha oy, vaqt yoki bosqichlardagi yozma ishlarini avtomatik tarzda solishtirib, ularning o'sish dinamikasini grafik hamda statistika ko'rinishida taqdim eta oladi. Psixometrik yondashuvlar sun'iy intellekt asosida shakllangan ta'lim tizimining ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Sun'iy intellekt + differensiyaviy yondashuv + psixometrik tahlil—chet tilida yozma nutqni rivojlantirishda quyidagi natijalarni beradi:

1. O'quvchilar o'z darajasida o'rganadi.

2. Yozma nutq sifati tezroq va aniqroq o'sadi.

3. Xatolarni tahlil qilish jarayoni avtomatlashtiriladi.

4. O'qituvchining baholashga sarflaydigan vaqti kamayadi.

5. Ta'lim jarayonining shaffofligi va o'lchanishi kuchayadi.

6. O'quvchilar motivatsiyasi oshadi, chunki feedback darhol olinadi.

Shuningdek, sun'iy intellekt ta'lim jarayonining insoniy omillarini to'liq almashtirmasligi, balki o'qituvchiga yordamchi sifatida qo'llanishi e'tirof etiladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, muayyan chet tilini samarali o'qitishda differensiyaviy yondashuv hamda psixometrik tahlilni qo'llash orqali talabalarning o'zlashtirish darajasi oshadi, individual yondashuv amalga oshiriladi. Xususan, o'quv jarayonining sifat ko'rsatkichlari yaxshilanadi. Ta'lim tizimida bu kabi yondashuvlar o'quv jarayonining takomillashuvida hamda o'rganuvchilarning individual tarzda shakllanishida muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Banks, J. A. Cultural Diversity and Education: Foundations, Curriculum, and Teaching (6th ed.). Routledge, 2015.
2. Gay, G. Culturally Responsive Teaching: Theory, Research, and Practice. Teachers College Press, 2010.
3. Heffernan, N. T. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Journal of Educational Technology Development and Exchange, 2021. 14(1), 1–12.
4. Kaplan, R. M., & Saccuzzo, D. P. Psychological Testing: Principles, Applications, and Issues (9th ed.). Cengage Learning, 2018.

5. Shavkieva M. S., Daniyurova Y. The Linguistic Analysis of Syntactic Units, Word Combinations and Sentences // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal – 2023. – T.11. – № 4 – С. 361-363.
6. Shavkieva M. S., Daniyurova Y. The Linguistic Analysis of Translating Syntactic Units and Word Combinations from English into Uzbek // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal – 2023. – T.11. – № 4 – С. 359-360.
7. Shavqiyeva M. S., Tursunova O. T., Shamsiyeva X. SH. General Characteristics of English Nouns // BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT – 2023. – T.3. – № 6 – С. 524-527.
8. Shavqiyeva M. S., Tursunova O. T., Shamsiyeva X. SH. Gazeta matnlaridagi ingliz va o'zbek tili sintaktik birliklarining lingvistik tahlili// Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics – 2023. – T.2. – № 3 – С. 380-386.
9. Tursinova Klara Nuriddinovna, Shavqiyeva Maftuna Salimboy qizi, & Komilov E'zoz Ramizovich. (2024). YUQORI SINF O'QUVCHILARINING YOZMA NUTQ KO'NIKMALARINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI. PEDAGOGS, 71(3), 100-103.
10. Турсинова, К., Дониёрова, Ё. и Шавкиева, М. 2025. Механизмы применения технологий искусственного интеллекта на основе дифференцированного подхода и психометрического анализа для повышения эффективности преподавания английского языка в высшем образовании. Зарубежная лингвистика и лингводидактика. 3, 4/S (апр. 2025), 195–199.